CHET TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Tursunboyeva Malohat Eldorjon qizi
Talaba

Guliston davlat pedagogika Instituti
e-mail: malohattursunboyevs@gmail.com
Xo‘jabekova Yasmina Rahimjon qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika Instituti
e- mail:xujabekovayasmina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalar — kompyuter dasturlari, interaktiv platformalar, multimedia vositalari va onlayn resurslardan foydalanish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyasini kuchaytirish hamda darslarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etishdagi afzalliklari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Inavatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari, chet tili, ingliz tili, kompyuter, multimediya, oynayi jahon, audio.

Bugungi kunda dunyo har kuni, har bir soniyalarda rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyalar inson hayotiga katta ta’sir o‘tqazmoqda. Bu jarayon hatto, ta’limda ham o‘z ta’sirini sezdirmay qolmadi. Shuningdek, chet tilnio‘rganish ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalarda bir muncha yengillik kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari ta’lim sohasi bilan chambarchas bog‘landi. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich raisligida chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan selektorda chet tili o‘qituvchilarga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi ta’kidlandi. Hozirgi kunda kelib esa nafaqat chet tili balki, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borish ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilning o‘rganishning har bir aspect yani tinglab tushunish,yozish, o‘qish va gapirishda qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, pleyer, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirib bo‘lmaydi. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan va ulardan foydalana olishni bilishi zarur. Bu jarayonda, jumladan:

-kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kino yoki multfilimlarni ham ko‘rishni va eshitib tushunishi mumkin;
-chet tillardagi radio eshitishlar va televidienadagi dasturlarni tomosha qilish mumkin;
-ancha an’anaviy usul hisoblangan magnitafon va kasetalardan foydalanish.

Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘zgarishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’millaydi.

Hozir chet tillarini o‘rganishga yordam beradigan muhim , samarali va zamonaviy ilovalarni ko‘rib chiqamiz.Turli xil ilovalardan foydalanib ko‘plab, jumladan, ingliz, arab, ispan, fransuz, italyan, nemis, irland, golland, rus, xittoy va boshqa tillarni o‘rganishingiz mumkin.

Duolingo ilovasi- bugungi kunda 9.6 million aktiv foydalanuvchilarga ega eng mashhur va keng qo‘llaniladigan ilova hisoblanadi.Ilova orqali til o‘rganishni boshlash jarayoni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi mumkin. Shunchaki ilovani ochib, o‘rganmoqchi bo‘lgan tilingizni tanlaysiz va siz uchun alohida dars boshlanadi. Akkaunt ochib o‘tirishingiz shart emas, lekin akkaunt yaratsangiz, ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lasiz. Misol uchun, o‘rganayotgan paytingizda, jarayonini saqlash va kuzatib borishingiz mumkin bo‘ladi. Barcha darajadagi o‘rganuvchilar: beginner, intermediate, advanced va

boshqalar foydalanish imkoniyatlariga ega. Mavzular turli xil mavzularga moslab chiqilgan. O‘qish, yozish, tinglab tushunish, so‘zlashish va shukabilarni barchasi uchun mashqlar mavjud. Kuningizning istalgan vaqtida va istalgan muddatda foydalana olasiz. Har bir bajarilgan mashqdan so‘ng harakatlanuvchi odamcha shaklidagianimatsiyalar foydalanuvchiga o‘ziga xos animatsiya beradi. Misol tariqasida, agarda siz mashqlarni yaxshi, a’lo darajada bajarsangiz animatsion odamchalar harakatlanib sizga tabassum qiladi va zo‘r deb ishora ko‘rsatadi. O‘rganish mumkin bo‘lgan tillar bular: ispan, fransuz, ingliz, nemis, xitoy, yapon, koreys, italyan, portugal, golland, irland, shved, turk, norveg, ukrain, rus, polyak, hind, vetnam, venger, grek, indonez, chex. Duolingo onlayn yoki Android, iOS va Windows uchun ilovalar orqali foydalanish mumkin.

FluentU- ushbu ilova orqali dunyo bo‘yicha eng ko‘p tarqalgan tillardagi video suhbatlarni subtitr bilan ko‘rish imkoniyatlarga ega. Bu ilova ko‘rib o‘rganish qobiliyati “Audio-visual learners” kuchli o‘rganuvchilar uchun o‘z qulayliklariga ega. Buni afzalliklari: mavzular doirasi juda keng. Turli reklamalar ulardagi musiqalar va videolarni, suhbatlarni tinglash mumkin. Video ko‘rish davomida so‘zlarning subtitr chiqib turadi va tushunishda qandaydir muammoga duch kelsangiz, ana shu so‘zni ustiga bosilsa, so‘z ma’nosini osongina topib olish imkoniyatlari mavjud.

Ibrat academy- bu ham bepul ilovalardan biri sanaladi. Ro‘yxatdan o‘tish orqali turli xil tillarni bepul va samarali usulda, tajribali ustozlardan o‘rganish mumkin.Dastur Android va iOS qurilmalarda mavjud. Loyiha orqali 30 dan ortiq kurslar taklif etilgan. Platformada ko‘plab foydalanuvchilar bo‘lib, sertifikat olganlar ham bor. Afzalliklari :Bepul — foydalanuvchilar uchun kurslar va darslar odatda bepul taklif qilinadi. Interaktiv o‘qish — viktorinalar, testlar, interaktiv mashqlar bilan ta’lim jarayoni jonli bo‘lishi kutiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda texnikasiz hech bir ishni udallay olish qiyin hatto, ta’lim sohalarida ham. Informatika, raqamli texnologiyalar fanlari ham chet tillarni va fanlarni o‘qitish metodikasi bilan bog‘landi. O‘ylaymanki, endilikda axborot texnologiyalari orqali masofaviy hujjatlarni, turli kitob, jurnallarni, ta’lim doirasida ham qiyinchiliklar yuz bermaydi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar, axborot texnologiyalari chet tillarni mukammal egallash ilm cho‘qqisiga chiqish uchun manfaatli yo‘llardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qishda inovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent- 2012.
2. Djumaqulov A. A. The difference modular teaching technology and traditional teaching. 2020.
3. Jalilov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2012.
4. Abdumuratovich, Kuziyev Shavkat. "AI IN LANGUAGE LEARNING PROCESS." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2023.
5. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "The Use of Buzzwords in Communication: English and New Linguistic Trends."
6. IN, Bekhzod Rakhmankulovich Sultanov-MILITARY RHETORIC. "UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* 17-6 (2020): 3372-3378.
7. Sh, Kuziev. "The ways of developing discourse competence in non-linguistic faculties." *The academy of Ma'mun in Kharezm* 5 (2020).